



Tolibova Mushtariy
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

INNOVATSION TAFAKKUR VA MILLIY G‘OYA MUSHTARAKLIGI

Anontatsiya: Ushbu maqolada har sohaga jadal kirib kelayotgan innovatsiyalarning ahamiyati va ularning milliy istiqlol g‘oyasi bilan mushtarakligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, millat, mafkura, liberalizm, demokratiya, ilm-fan, innovatsiya, kashfiyat, ehtiyoj, tafakkur, ma’naviy hayot.

Har qanday jamiyat rivoj topishi uchun yoshlar qatlaming o‘rni katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Yoshlarning aqlli va har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib yetishishida ularning ongi, tafakkuri yaxshi rivojlangan bo‘lishi juda zarur. Buning uchun esa ularda o‘ziga yarasha bilim, milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat va milliy g‘oya yaxshi singdirilgan bo‘lishi kerak.

Milliy g‘oya — muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi¹.

Har bir xalq o‘z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o‘zagini tashkil etadigan, o‘ziga xos o‘q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o‘taydigan ijtimoiy g‘oyani shakllantirish muammosini hal etadi. Bunga esa milliy g‘oya orqali erishiladi. Milliy g‘oya muayyan darajada insoniyat taqdiriga ta’sir qiladi. Milliy g‘oyaning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlar qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda ahamiyati katta. Milliy g‘oya vositasida el-yurt birlashadi, o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi. Mana shunday g‘oyalarning singishi uchun esa yoshlarning ong darjasи yetuk bo‘lishi kerak. Bugun globallashuv zamonida har bir narsa yoshlarga zamonaviy texnikalar yordamida yetkazib beriladi. Jamiyatda milliy g‘oyani rivojlantirish yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Chunki u milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning muhim vositasidir. Ana shuning uchun ham haqiqiy innovatsion tafakkur sohiblari bu jarayonlarni bir biridan farqlay oladi.

«Ehtiyoj – kashfiyotning onasi», – degan edi qadimgi yunon faylasufi Aflatun². Ana shu ilg‘or g‘oya va tashabbuslar, ixtiolar ya’ni, innovatsiyalar bois ham biz hozirgi zamonga yetib kelganmiz. Innovatsiya – ijodiy yondashuv darajasini namoyon etuvchi ko‘nikma bilan bog‘liq hodisadir. Zamon talabi ilm-fan yutuqlariga tayanib, islohotlar asosida yotgan liberalizm g‘oyalari va demokratik siyosiy tartibot asosida kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tishdan iborat. Uni moddiy va ma’naviy boylik yaratishda ilm-fan yutuqlariga asoslanish deb ham tushunamiz. Darhaqiqat, ilm-fan yutuqlariga asoslangan davlat rivojlanib, gullab-yashnab bormoqda. Shuning uchun O‘zbekiston mamlakati ham o‘z taraqqiyotini ilm-fan yutuqlariga asoslangan holda amalga oshirishga harakat qilmoqda. Faol tadbirkorlik innovatsion g‘oyalarga asoslansa, innovatsion g‘oyalalar esa ilm-fanga asoslanadi. Chunki yangilikni anglatadigan innovatsiya oldindan ko‘ra bilishga, oldindan ko‘ra bilish esa fanga asoslanadi. Bugungi kundagi “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan maqsadimiz va manfaatlarimizni umumlashtirish uchun bir tomondan ma’rifat va targ‘ibot ishlari kerak bo‘ladi³. Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishda innovatsiya shu sohani sifatini yaxshilashga yo‘naltiriladi. Innovatsiyalar dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy g‘oya tizimida yangicha yondashuvlarga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, birinchi jild 2000-yil



2. Rajabov. "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent. 2009-yil
3. Tashmetov, T.X. "Global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari". Academic research in Sciences. 596-602-bet
4. O.Bozorov "Milliy g'oya va targ'ibot samaradorligi". T. Ma'naviyat. 2018-yil. 20-bet
5. A.Azizzxo'jayev. "Milliy istiqlol g'oyasi va targ'ibot texnologiyasi". 2000-yil. 20-bet
6. Anarbaevich, T. N. (2023). TA'LIM SOHASIDA AKADEMIK ERKINLIK MUAMMOLARI. IQRO, 2(1), 654-658.
7. Tursinkulov, N. A. (2021). ERKINLIK G 'OYASINING FALSAFIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 2(6), 831-838.
8. Anarbayevich, N. T. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTERNET ERKINLIGINING YANGI BOSQICHGA KO 'TARILISHI. IMRAS, 7(5), 416-420.
9. Tursinkulov, N. A. (2024). PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE IDEA OF FREEDOM. World of Scientific news in Science, 2(1), 360-368.
10. Tursinkulov, N. A. (2024). RAISING INTERNET FREEDOM TO A NEW LEVEL IN UZBEKISTAN. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2(1), 206-212.v
11. Anarbayevich, T. N. (2023). Theories about the Idea of Freedom and Their Epistemological Analysis. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(5), 118-122.